

TRANSPORT VOSITALARIDA EKSTREMISTIK YO'NALISHDAGI MA'MURIY HUQUQBUZARLIKLAR TARKIBINING YURIDIK TAVSIFI

Xomidov Tursinali Adxamovich

Toshkent davlat transport universiteti doktoranti
mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22724832>

Qabul qilindi: 4-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 11-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 12-sentabr 2026-yil

Annotatsiya.

Maqolada ekstremistik yo'nalishdagi ma'muriy huquqbuzarliklar tarkibining elementlari – obyekt, obyektiv tomon, subyekt va subyektiv tomon yuridik jihatdan tavsiflangan. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi normalari tahlili asosida ekstremistik yo'nalishdagi ma'muriy huquqbuzarliklarning bevosita obyektidan kelib chiqqan holda uch guruhli tasnifi ishlab chiqilgan. Ekstremistik yo'nalishdagi huquqbuzarliklarda motiv subyektiv tomonning majburiy belgisi ekanligi asoslangan. Ma'muriy-huquqiy va jinoyat-huquqiy javobgarlik mexanizmlari o'rtasidagi chegarani belgilovchi mezonlar tizimi taklif etilgan hamda ushbu toifadagi huquqbuzarliklar profilaktikasini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar:

ma'muriy huquqbuzarlik tarkibi, ekstremistik yo'nalish, huquqbuzarlik obyeksi, obyektiv tomon, subyekt, subyektiv tomon, motiv, formal tarkib, tasnif, ma'muriy javobgarlik, profilaktika.

Har qanday g'ayriqonuniy faoliyatga qarshi kurashish tegishli qonunchilik asosisiz samarali bo'lishi mumkin emas. Bu asos huquqni muhofaza qilish faoliyatining doirasi va chegaralari haqida ma'lumot beruvchi zaruriy tushunchalar tizimini, davlat tomonidan ijro etuvchi hokimiyat organlariga qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarni himoya qilish uchun berilgan majburlov choralari, shuningdek, ichki ishlar organlariga yuklatilgan vazifalarni tizimli ravishda hal etish uchun zarur bo'lgan boshqa elementlarni o'z ichiga olishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining zamonaviy qonunchiligida ekstremizmga qarshi kurashning normativ-huquqiy asosini quyidagilar tashkil etadi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi¹; O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi²; O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 30-iyuldagi "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-489-sonli Qonuni³; 1997-yil 29-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlik

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 30-apreldagi referendumda qabul qilingan tahrirda). — URL: <https://lex.uz/docs/6445145>.

² O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, 1994-yil 22-sentabr. — URL: <https://lex.uz/docs/97664>.

³ O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 30-iyuldagi O'RQ-489-son "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. — URL: <https://lex.uz/docs/3841957>.

konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 467-I-sonli Qonuni ⁴ ; 2003-yil 11-dekabrda "Axborotlashtirish to'g'risida"gi 560-II-sonli Qonuni ⁵ . Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasida ekstremistik faoliyatga qarshi kurashni tashkil etishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ma'muriy-huquqiy tartibga solish doirasida shaxslarni sodir etgan qilmishlari uchun yuridik javobgarlikka tortish uchun huquqbuzarlik tarkibining mavjudligi majburiy shart hisoblanadi. Shu sababli, ekstremistik yo'nalishdagi huquqbuzarliklarni tavsiflash aynan ularning asosiy elementlarini ko'rib chiqish va tahlil qilishdan boshlanadi. Mazkur maqolaning maqsadi transport vositalarida sodir etilishi mumkin bo'lgan ekstremistik yo'nalishdagi ma'muriy huquqbuzarliklar tarkibining elementlarini yuridik jihatdan tavsiflash, ularni tasniflash hamda ma'muriy va jinoiy javobgarlik chegarasini belgilovchi mezonlarni aniqlashdan iborat.

Ekstremistik yo'nalishdagi ma'muriy huquqbuzarliklar tarkibi masalalari mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida turli darajada o'rganilgan. Ye.V.Pavlova ekstremistik yo'nalishdagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni terrorizmga qarshi kurashda profilaktik chora sifatida baholaydi ⁶ . N.V.Polyakova voyaga yetmaganlarning ekstremistik yo'nalishdagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarligi masalalarini tadqiq etgan ⁷ . A.V.Karyagina millatlararo nizolarni ekstremizm tarqalishining omili sifatida tahlil qilgan ⁸ . S.S.Oganesyan, N.V.Rumyantsev va S.X.Shamsunovlar ekstremizm va terrorizm profilaktikasi hamda unga qarshi kurashishning asosiy yo'nalishlarini monografik darajada o'rgangan ⁹ .

Yuqoridagilarni tahlil qilar ekanmiz, ma'muriyatchi olimlar orasida ekstremizm va ekstremistik faoliyat tushunchalarini alohida kategoriyalar sifatida ajratish fikri ustunlik qilayotganini ta'kidlash mumkin. Biroq, qonun chiqaruvchi ushbu masala yuzasidan tadqiqotchilarning nuqtayi nazarini to'liq qo'llab-quvvatlamaydi va ekstremistik faoliyatga qarshi kurashni huquqiy tartibga solish samaradorligini oshirish hamda huquqdagi bo'shliqlar va ziddiyatlarning oldini olish maqsadida mazkur tushunchalarni bir xil deb hisoblaydi.

Fikrimizcha, faoliyatni ekstremistik deb baholashga oid mavjud qonunchilik yondashuvini maqbul va ehtimol yagona mumkin bo'lgan yo'l sifatida tan olish lozim. Shunga qaramay, bu holat ekstremistik faoliyatga qarshi kurash sohasidagi qonunchilikda kamchiliklar yo'q va uni takomillashtirish shart emas, degan ma'noni anglatmaydi. Ekstremizmga qarshi kurashish har doim uning izdoshlari targ'ib qilayotgan mafkurani qoralovchi diniy tashkilotlar va davlat hokimiyati organlari faoliyatining eng muhim yo'nalishi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda.

Avvalo, ma'muriy huquqbuzarlik tarkibi tushunchasini aniqlab olish lozim. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (keyingi o'rinlarda – MJtK)ning 10-moddasida "ma'muriy huquqbuzarlik deganda qonunchilikka binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki

⁴ O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlik konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 467-I-son Qonuni. — URL: <https://lex.uz/docs/118360>.

⁵ O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi 560-II-son Qonuni. — URL: <https://lex.uz/docs/83472>.

⁶ Павлова Е.В. Административная ответственность за правонарушения экстремистской направленности как профилактическая мера в борьбе с терроризмом.

⁷ Полякова Н.В. Административная ответственность несовершеннолетних за правонарушения экстремистской направленности // Общественная безопасность, законность и правопорядок в III тысячелетии. — 2019. — № 5-3. — С. 67-72.

⁸ Карягина А.В. Межнациональные конфликты как фактор распространения экстремизма: материалы научно-практической конференции. — Омск, 2021. — С. 93-97.

⁹ Оганесян С.С., Румянцев Н.В., Шамсунов С.Х. Основные направления профилактики и противодействия экстремизму и терроризму в уголовно-исполнительной системе Российской Федерации: монография. — М.: НИИ ФСИН России, 2021.

ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi”¹⁰. Huquqbuzarlik tarkibi muayyan elementlardan, ya’ni yuridik faktlar guruhidan tashkil topgan. Bu elementlar huquqbuzarliklarning o’ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularni bir-biridan ajratish imkonini beradi. Ma’muriy huquqbuzarlik obyekt, obyektiv tomon, subyekt va subyektiv tomonni o’z ichiga oladi.

Huquqbuzarlik obyekt – davlat tomonidan muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlar bo’lib, ularga g’ayriqonuniy qilmish orqali tajovuz qilinadi. Obyekt huquqbuzarlik tarkibining zaruriy elementi hisoblanadi. Agar qilmish biron-bir obyektga tajovuz qilmasa yoki davlat tomonidan himoya qilinmaydigan obyektga qaratilgan bo’lsa, u ma’muriy huquqbuzarlik sifatida tan olinmaydi. Ma’muriy huquq ilmida obyektlarni belgilanadigan ijtimoiy munosabatlar doirasining kengligiga qarab umumiy, turdosh va turga oid obyektlarga ajratish qabul qilingan. Ma’muriy huquqbuzarlikning umumiy obyekt – ijro etuvchi hokimiyat faoliyati jarayonida yuzaga keladigan va ma’muriy, ba’zi hollarda esa konstitutsiyaviy, moliyaviy va boshqa huquq sohalari normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlardir. Turdosh obyekt – bir turdagi huquqbuzarliklarning katta guruhi (ko’pincha jamoat xavfsizligi va jamoat tartibi) tajovuz qiladigan ijtimoiy munosabatlar doirasidir. Tur obyekt – shaxs tajovuz qiladigan aniq himoyalangan ijtimoiy munosabatdir.

Ma’muriy huquqbuzarlik tarkibining elementi sifatida obyektning fakultativ belgisi predmet hisoblanadi. Ekstremistik yo’nalishdagi huquqbuzarliklarni kvalifikatsiya qilishda ushbu belgi muhim ahamiyatga ega. Predmet sifatida tajovuz qilinayotgan yoki tajovuz orqali amalga oshirilayotgan moddiy dunyo obyektlari bo’lishi mumkin. Xususan, natsistik atributika yoki ramzlar yoxud ular bilan chalkashtirib yuborish darajasida o’xshash narsalar huquqbuzarlik predmeti sifatida baholanadi. Bizningcha, bunday narsalarni huquqbuzarlik quroli sifatida emas, balki aynan huquqbuzarlik predmeti sifatida qabul qilish lozim, chunki bu predmetlarning mavjudligi qonun qoidalari bilan taqiqlanmagan. Ko’rsatilgan buyumlarni namoyish etish, ya’ni ularni jamiyatda tarqatishga qaratilgan harakatlarni sodir etish huquqbuzarlik hisoblanadi. Shu bilan birga, agar namoyish axborot-telekommunikatsiya tarmog’ida tegishli ramzlarni joylashtirish orqali amalga oshirilsa, qurol sifatida g’ayriqonuniy harakatlar amalga oshirilgan maxsus texnik qurilma hisoblanadi.

Tarkibning keyingi elementi **obyektiv tomond**ir. Bu element jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, shuningdek qonun hujjatlari bilan himoya qilinadigan umumdavlat – ommaviy-huquqiy manfaatlariga zarar (ziyon) yetkazuvchi harakat yoki harakatsizlik shaklida ifodalangan aniq qilmishni anglatadi. Obyektiv tomonga asosiy (majburiy) belgi – qilmishning mavjudligidan tashqari, ma’muriy huquqbuzarlik tarkibiga qarab ham majburiy, ham fakultativ elementlar bo’lgan huquqbuzarlikni sodir etish joyi, vaqti, usuli, vaziyati va vositalari kabi belgilar majmuasi ham kirishi mumkin. Ma’muriy huquqbuzarliklar tarkibini obyektiv tomoni nuqtayi nazaridan moddiy va formal turlarga ajratish qabul qilingan. Moddiy tarkiblarning dispozitsiyalari shunday tuzilganki, sodir etilgan qilmish bilan sababiy bog’liqlikda bo’lgan ijtimoiy xavfli oqibatlarining yuzaga kelishi yuridik javobgarlikning vujudga kelishi uchun majburiy asos hisoblanadi. Formal tarkiblar esa ijtimoiy zararli oqibatlarining yuzaga kelishi zaruriyati bo’lmashligi bilan tavsiflanadi.

Obyektiv jihatdan ekstremistik yo’nalishdagi huquqbuzarliklarning aksariyati formal hisoblanadi. Bunday holda qonun chiqaruvchi ekstremistik xususiyatga ega bo’lgan qilmishlarning o’zi uchun javobgarlikni nazarda tutish zarurligini tan oladi. Qonun chiqaruvchi ekstremistik huquqbuzarliklar tarkibini formal deb mutlaqo to’g’ri ta’riflaydi, chunki ekstremistik mafkuralarni tarqatishdan kelib chiqadigan salbiy oqibatlarga yo’l qo’yib bo’lmaydi. Bu holatda bunday choralar ma’lum darajada oldini oluvchi xususiyatga ega ekanligi haqida gapirish mumkin.

O’zbekiston Respublikasi MJtK normalarini tahlil qilgan holda ekstremistik yo’nalishdagi ma’muriy huquqbuzarliklarning quyidagi tasnifini ishlab chiqdik. **Birinchi guruhga**

¹⁰ O’zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksi, 1994-yil 22-sentabr. — URL: <https://lex.uz/docs/97664>.

ekstremistik g'oyalarni targ'ib qilish va milliy, irqiy, etnik hamda diniy adovatni uyg'otish bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklar kiradi: diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish (184²-modda); milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ'ib qiluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash yoki tarqatish (184³-modda). **Ikkinchi guruhga** jamoat tartibi va ijtimoiy barqarorlikka tahdid soluvchi faoliyat bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklar kiradi: yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o'tkazish tartibini buzish (201-modda); g'ayriqonuniy nodavlat notijorat tashkilotlari, oqimlar, sektalarning faoliyatida qatnashishga undash (202¹-modda); bayroqlar va vimpellardan g'ayriqonuniy foydalanish, plakatlari, emblemalar va ramzlarni tayyorlash, tarqatish yoki taqib yurish (203-modda). **Uchinchi guruhga** diniy faoliyat va diniy ta'limot berish tartibini buzish bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklar kiradi: diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzish (240-modda); diniy ta'limotdan saboq berish tartibini buzish (241-modda).

Taqdim etilgan tasnifda asosiy tasniflovchi belgi sifatida huquqbuzarlik tarkibining bevosita obyekti ajratib ko'rsatilgan. Ekstremistik yo'nalishdagi ma'muriy huquqbuzarliklarning turdosh obyekti jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, ko'rsatilgan moddalar dispozitsiyasiga kiruvchi qilmishlarda jinoiy jazoga loyiq qilmish tarkibi alomatlari bo'lmasligi kerak. Amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, ekstremistik yo'nalishdagi ma'muriy huquqbuzarliklar tarkibida 184²- va 184³-moddalar bo'yicha ishlar asosiy o'rinni egallaydi.

Ma'muriy huquqbuzarlik tarkibining keyingi elementi **huquqbuzarlik subyektidir**. Huquqbuzarlik subyekti deganda qonunga xilof, ma'muriy jazolanadigan qilmishni sodir etgan, shuningdek huquq layoqati va muomala layoqatiga ega bo'lgan, ya'ni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi qoidalariga muvofiq o'z qilmishlari uchun yuridik javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan shaxs tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi Mjtkning 20-moddasiga muvofiq g'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik sodir etgan vaqtida aqli norasollik holatida bo'lgan shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas¹¹. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlikka tortish masalalarini tartibga soluvchi qonunchiligida maxsus subyektlar ham ajratib ko'rsatilgan bo'lib, ular uchun sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning yuqori darajasi belgilangan. Xususan, Mjtkning 15-moddasida mansabdor shaxs tushunchasi belgilangan bo'lib, u maxsus subyekt hisoblanadi va uning maqomi hamda hokimiyat vakolatlari mavjudligi sababli javobgarlikning yuqori darajasi o'rnatilgan.

Ma'muriy huquqbuzarlik tarkibining so'nggi elementi – **subyektiv tomon**, ya'ni subyektning sodir etilgan qilmish va uning oqibatlariga nisbatan ruhiy munosabatidir. Uning majburiy belgisi ayb hisoblanadi, u qasd yoki ehtiyotsizlik shaklida ifodalanishi mumkin. Ekstremistik yo'nalishdagi ma'muriy huquqbuzarliklarning subyektiv tomoni, odatda, aybning qasddan shakli (to'g'ridan-to'g'ri va egri qasd) bilan tavsiflanadi.

Umumiy qoidaga ko'ra, ma'muriy huquqbuzarlik belgisi sifatida motiv ixtiyoriy hisoblanadi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-iyuldagi PF-6255-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2021–2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha Milliy strategiyada ekstremizmning har qanday ko'rinishi – siyosiy, mafkuraviy, irqiy, milliy yoki diniy adovat yoxud dushmanlik, yoinki biron-bir ijtimoiy guruhga nisbatan nafrat yoki dushmanlik asosida qasddan sodir etiladigan, millatlararo, konfessiyalararo va mintaqaviy nizolarni keltirib chiqarish hamda kuchaytirishga qaratilgan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga, birligi va hududiy yaxlitligiga tahdid soladigan ijtimoiy xavfli g'ayriqonuniy qilmish sifatida ta'riflangan¹². Boshqacha aytganda, ma'lum bir motivning mavjudligi nazarda tutiladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, ekstremistik yo'nalishdagi ma'muriy huquqbuzarliklarda motiv huquqbuzarlikning subyektiv tomonining

¹¹ O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, 1994-yil 22-sentabr. — URL: <https://lex.uz/docs/97664>.

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-iyuldagi PF-6255-son "2021–2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. — URL: <https://lex.uz/docs/5491626>.

majburiy belgisi hisoblanadi. Shunga ko'ra, motivning yo'qligi qilmishni ekstremistik yo'nalishdagi faoliyat sifatida tasniflab bo'lmashligini anglatadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi MJtKning 10-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, Kodeksda nazarda tutilgan huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlik, basharti bu huquqbuzarlik o'z xususiyatiga ko'ra jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'lmagan taqdirda amalga oshiriladi¹³. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining veb-saytida joylashtirilgan internet jahon tarmog'idagi diniy ekstremistik, terroristik va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan deb topilgan hamda O'zbekiston Respublikasining hududiga olib kirish, tayyorlash, saqlash, tarqatish va namoyish etilishi taqiqlangan manba va kontentlar (materiallar) ro'yxati shaxslarni muayyan tarkiblar bo'yicha javobgarlikka tortish uchun muhim ahamiyatga ega¹⁴.

Ma'muriy-huquqiy va jinoyat-huquqiy mexanizmlar o'rtasidagi chegara mazkur toifadagi ishlarda quyidagi mezonlar tizimi bo'yicha belgilanadi: birinchidan, qilmish tarkibi — MJtKning tegishli moddalarida nazarda tutilgan belgilarning to'liq mavjudligi; ikkinchidan, qasdning mazmuni va yo'nalishi; uchinchidan, ijtimoiy xavflilik darajasi; to'rtinchidan, harakatning bosqichi; beshinchidan, oqibatning tabiati va og'irligi; oltinchidan, terrorchilik maqsadining mavjud yoki mavjud emasligi; yettinchidan, ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risidagi maxsus normaning qo'llanilishi; sakkizinchidan, shaxsning protsessual maqomi. Ma'muriy ish yuritish jinoyat alomatlari aniqlangan yuridik faktdan boshlab to'xtatiladi va materiallar jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli organga yuboriladi; ushbu paytga qadar qo'llanilgan ish yuritishni ta'minlash choralari o'z kuchini saqlaydi va tuzilgan bayonnomalar dalil sifatida ahamiyatini yo'qotmaydi.

Ekstremistik yo'nalishdagi ma'muriy huquqbuzarliklarga tavsif berishda ekstremizmga qarshi kurashish sohasidagi muammoli masalalarga ham e'tibor qaratish lozim. Ular qatoriga quyidagilar kiradi: ushbu hodisaga qarshi kurashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda turli davlat tuzilmalarining harakatlari muvofiq emasligi, mansabdor shaxslarning o'z vazifalarini bajarishga rasmiy yondashishi, qonunchilikdagi bo'shliqlar, ziddiyatlar va nomuvofiqliklar, turli darajalarda tartibga solishning yetarli emasligi, ekstremistik tashkilotlarni yashirin moliyalashtirish, ekstremistik tashkilotlar faoliyatining murakkab ko'p bosqichli tarzda tashkil etilishi¹⁵. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Biz globallashuv har tomonlama avj olayotgan, shiddatli o'zgarishlar sodir bo'layotgan murakkab zamonda yashamoqdamiz. Iqlim o'zgarishlari, ekologik muammolar, radikalizm, ekstremizm va terrorizm, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar bizning mamlakatimizda ham yechilishi zarur bo'lgan dolzarb vazifalar hisoblanadi. Bunday muammolarni hal etishda kuch va imkoniyatlarni birlashtirish, bu boradagi barcha sa'y-harakatlarni uyg'unlashtirish lozim" deb ta'kidlagan edi¹⁶.

O'tkazilgan tahlil natijasida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi.

Birinchidan, ekstremistik yo'nalishdagi ma'muriy huquqbuzarliklar tarkibi to'rt elementdan – obyekt, obyektiv tomon, subyekt va subyektiv tomondan iborat bo'lib, ularning aksariyati formal tarkibga ega. Natsistik atributika yoki ramzlar yoxud ular bilan chalkashtirib yuborish darajasida o'xshash narsalar huquqbuzarlik quroli emas, balki huquqbuzarlik predmeti sifatida baholanishi lozim.

¹³ O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, 1994-yil 22-sentabr. — URL: <https://lex.uz/docs/97664>.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan internet jahon tarmog'idagi diniy ekstremistik, terroristik va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan deb topilgan hamda O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, tayyorlash, saqlash, tarqatish va namoyish etilishi taqiqlangan manbalar va kontentlar (materiallar) ro'yxati. — URL: <https://sud.uz/open-info/supreme-court-open-info/>.

¹⁵ Кабулов Р., Анорбоев А. Уголовно-правовые аспекты совершения преступления в виде экстремизма через информационно-коммуникационные технологии. — 2022.

¹⁶ Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. — 20.12.2022. — URL: <https://president.uz/uz/lists/view/5774>.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi MJtK normalari tahlili asosida ekstremistik yo'nalishdagi ma'muriy huquqbuzarliklar ularning bevosita obyektidan kelib chiqib uch guruhga tasniflandi: ekstremistik g'oyalarni targ'ib qilish va adovat uyg'otish bilan bog'liq (184², 184³-moddalar); jamoat tartibi va ijtimoiy barqarorlikka tahdid soluvchi faoliyat bilan bog'liq (201, 202¹, 203-moddalar); diniy faoliyat va diniy ta'limot berish tartibini buzish bilan bog'liq (240, 241-moddalar) huquqbuzarliklar.

Uchinchidan, ekstremistik yo'nalishdagi ma'muriy huquqbuzarliklarda motiv (siyosiy, mafkuraviy, irqiy, milliy yoki diniy adovat) subyektiv tomonning fakultativ emas, balki majburiy belgisi ekanligi asoslandi. Motivning yo'qligi qilmishni ekstremistik yo'nalishdagi faoliyat sifatida tasniflashni istisno etadi.

To'rtinchidan, ma'muriy-huquqiy va jinoyat-huquqiy javobgarlik mexanizmlari o'rtasidagi chegarani belgilovchi sakkiz mezonidan iborat tizim taklif etildi, bu esa huquqni qo'llash amaliyotida qilmishlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, barcha aholi guruhlari uchun profilaktik tadbirlarni keng ko'lamda o'tkazish taklif etiladi. Bu tadbirlar quyidagi maqsadlarga qaratilishi lozim: yoshlar va katta yoshdagi aholining huquqiy savodxonligi, ongilligi va madaniyati darajasini shakllantirish va oshirish; yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash; millati, irqi, tili va diniy mansubligidan qat'i nazar, odamlarga nisbatan bag'rikenglik munosabatini tarbiyalash va targ'ib qilish; aholining munosib ijtimoiy va moddiy ta'minotini shakllantirish orqali davlatga bo'lgan ishonch darajasini oshirish; axborot-telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanuvchilar faoliyatini nazorat qilish tartib-qoidalarini kuchaytirish; ekstremistik faoliyatda ilgari aniqlangan shaxslarning faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish; ko'rib chiqilayotgan muammoga bag'ishlangan sud amaliyotining maxsus sharhlarini hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining ekstremizmga qarshi kurashishga bag'ishlangan qarorini ishlab chiqish; huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun ekstremistik yo'nalishdagi huquqbuzarliklarni tergov qilish va malakasini aniqlashning zamonaviy usullarini o'z ichiga olgan uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Mazkur ilmiy tadqiqot doirasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovda ishtirok etgan respondentlarning 87 foizi sud qarorlari, sharhlar, Plenum qarorlari va boshqa hujjatlarning e'lon qilinishini ko'rib chiqilayotgan toifadagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashishga yordam beradigan harakatlar deb hisoblaganlarini qayd etgan¹⁷.

¹⁷ Muallif tomonidan 121 nafar mutaxassis o'rtasida maqsadli tanlanma asosida o'tkazilgan ekspert so'rovi natijalari.